

ISSN: 2545-0573

ISHLAB CHIQUARISHDA BAHTSIZ HODISALARINI TEKSHIRISH VA N-1 SHAKLINI RASMIYLASHTIRISH

S. S. Sofiyev

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalari instituti

Z. A. Xakimova

Andijon tuman SEO va JSX xodimi

M. S. Abdullayeva

Izboskan tuman 11-maktab o'qituvchisi

ARTICLE INFO.

Kalit so'zlar:

Muxofazalash, hodisa, vazifalar, hizmatchilar, xo'jalik, qurilishlar, dexqon, suvga cho'kish, yer qimirlashi, ko'chki, suv toshqini, bo`ron.

Annotatsiya

O'zbekiston Respublikasi fuqorolarning hayoti va sog'lig'ini inson faoliyatining sohalar bo'yicha muxofazalashda respublikamizdagi ijtimoiy - iqtisodiy islohatlar natijalari ishlab chiqarish va hududiy xavfsizlik muommolarining inson hayoti xavfsizligiga tasiri masalarini qamraydi. Zero hozirgi vaziyatda havfsiz xayotni taminlash masalalari eng dolzarb muommolardan hisoblanadi.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

Ishlab chiqarishda uchraydigan baxtsizlik hodisalarini tekshirish va hisobga olish to'g'risidagi "Nizom"ga amal qilinadi. Doimiy, vaqtinchalik, davriy ishlarda shtatdagi, shtatda bo'lmagan va o'rindoshlik vazifalarida ishlovchi ishchi va hizmatchilari kooperativ xodimlari, artel va ijara tashkiloti a'zolari hamda qishloq xo'jaligida yakka tartibdagi mehnat faoliyatidagilar (dexqon xo'jaligi a'zolari); oilaviy pudrat bo'yicha ishlovchilar: xalq xashari yo'li bilan barpo etilayotgan qurilishlarda ishlayotganlar: uyda jamoa ishini bajaruvchilar amaliy ish yoki xo'jalik ishini bajarayotgan talaba va o'quvchilar; tarmoqqa aloqasiz bo'lgan muhofaza xodimlari; tashkilotlarga qurilish, qishloq xo'jaligi va tashqari harbiy hizmatga aloqasi bo'lmagan ishlarga jo'natilgan ozodlikdan maxrum qilinganlar, mehnat tarbiyasi koloniyasidagilar, mehnat bilan ro'y bergan bahtsizlik hodisalari tekshirishga tegishlidir. [3]

Tekshirish va hisobga olishga tegishli bo'lgan bahtsizlik hodisalariga jarohatlanishlar, o'tkir kasbiy kasalliklar va zaharlanishlar, issiq urishi, sovuq urishi, suvga cho'kish, yashin urishi; hayvon, xasharotlarning yetkazgan zararlari: tabiiy ofatlar (yer qimirlashi, ko'chki, suv toshqini, bo`ron va boshqalar) oqibatida zararlanishlar kiradi. [4]

Mehnat shartnomasini bajarayotganda (hizmat safari davri ham kiradi); korxonaning foydasi uchun,

ma'muriyatning ko'rsatmasi bo'lmasa ham biror ish bajarayotganda; Ishga kelayotganda yoki ketayotganda korxonaning o'zi yoki tashqari korxonadan shartnoma bo'yicha olingan transportida; Korxonada territoriyasida yoki tashqari joyda ish vaqtiga (tavsiya qilingan tanafuslar ham qo'shiladi); ish boshlashdan oldin yoki ish tugagandan keyin mashina mexanizmlarni, ish kiyimlari va tashqari narsalarni tartibga keltirish vaqtida; Shanbalariklar o'tkazilayotganda (qayerdaligidan qat'iy nazar) korxonalariga otalik yordami ko'rsatilayotganda; Ishlab chiqarish joylari va qurilmalarida avariya ro'y berganda; Vaxta shaharchasi territoriyasida transport vositalarida, dam olishayotgan (vagon kuzatuvchisi, navbatchi haydovchi, daryo va dengiz kemalari xodimlari hamda vaxta-ekspeditsiya usulida ishlovchilar va tashqarilar) da;

Ish vaqtida tashqari shaxs tomonidan tan jarohati yetkazilishi yoki o'ldirib qo'yishi oqibatida. Ishchi kamida bir kun ish qobiliyatining yuqolishiga sabab bo'lgan, ishlarini asosiy ishidan kamida bir kun tashqari yengilroq ishga o'tkazilishini taqozo qiladigan, tibbiy hulosalarga asoslangan bahtsizlik hodisalarini tekshirish natijalari N-1 formadagi dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi. [5]

Baxtsizlik hodisasi tufayli tashqari yengilroq ishga o'tkazilgan ishchini ish kunlari N-1 formadagi dalolatnomaning 15-1 punktida ko'rsatiladi.

Korxonada ma'muriyati baxtsizlik hodisasi tekshirib bo'lingandan uch kun o'tkazilmay rus yoki o'zbek tilida to'ldirilgan N-1 formadagi dalolatnomaning tasdiqlangan nusxasini jarohatlanuvchiga yoki uning yaqin kishisiga berishga majbur.

Ish beruvchining bo'lim boshlig'lari (brigadir, ustaxona mudiri, mexanik va tashqarilar), xo'jalikning mehnat muhofazasi muxandisi, kasaba uyushma qumitasining mehnat muhofazasi nazoratchisidan iborat bo'lgan xay'at quyidagilarni bajarishga majbur:

Uch kecha-kunduz davomida baxtsizlik hodisasining holatiga sabablarini ochish maqsadida atroflicha tekshiruv o'tkazib, mehnat muhofazasi qoidalarini, xavfsiz mehnat meyorlari tizimi talablarini buzgan shaxslar va guvohlarni aniqlash jabrlanuvchidan ham, agar imkoniyati bo'lsa, tushuntirish olish kerak;

N-1 formadagi dalolatnomani uch nusxada tuzish va bunda baxtsizlik hodisasining sabablari hamda uni oldini olish chora-tadbirlarini keltirish, so'ngra xo'jalik rahbariga tasdiqlatishga berish.

N-1 formadagi dalolatnomaga guvohlarni va jabrlanuvchilarni tushuntirishlari: reja va sxemalardan tashqari ish joyini, holatini (mashina, jihoz, qurilma) xavfli va zararli ishlab chiqarish omillarining bor-yoqligini ifodalovchi hujjatlar, tibbiy hulosalar va tashqarilar kiritiladi.

Xo'jalikda N-1 formadagi dalolatnoma bo'yicha rasmiylashtirilgan hamma baxtsizlik hodisalari maxsus qayd daftariga yozib qo'yiladi. [6]

N-1 formadagi dalolatnomaning tekshirish materiallari bilan mehnat muhofazasi muxandisiga berilgan nusxasi hisobga olingan xo'jalikda 45 yil davomida saqlanadi. Tashqari nusxalari esa zarurati qolmaguncha, unda ko'rsatilgan chora-tadbirlarning hammasi bajarilguncha saqlanadi.

Jarohatlanuvchi sog'ayib chiqqandan keyin baxtsizlik hodisasi ro'y bergan ish joyining boshlig'i N-1 fo'rma bo'yicha tuzilgan dalolatnomani 15-punktiga baxtsizlik hodisasining oqibatlarini yozib qo'yadi va bu to'g'risida maxalliy komitetga, mehnat muhofazasi muxandisi va mehnat texnik nazoratchiga yozma ma'lumotlar beradi.

Baxtsizlik hodisasi maktab, bilim yurti o'quvchilari, o'rta maxsus va oliy o'quv yurti talabalari xo'jalik xodimi qo'l ostida ishlab chiqarish amaliyotida, organlarida ro'y bersa o'quv yurt vakili ishtirokidagi xo'jalik xay'ati tomonidan tekshiriladi va xo'jalik hisobiga rasmiylashtiriladi.

Agar o'quvchi va talabalar xo'jalik tomonidan maxsus ajratilgan uchastkada xo'jalik xodimi qo'l ostida ishlab chiqarish amaliyotida yurganlarida baxtsizlik hodisasiga uchrasalar xo'jalik vakili ishtirokidagi o'quv yurti xay'ati tomonidan tekshiriladi va o'quv yurti hisobiga rasmiylashtiriladi.

Jarohatlanishi og'ir-yengilligidan qat'iy nazar ikki va undan ortiq kishi baxtsizlik hodisasiga birgalikda uchrashganlarida;

O'lim bilan tugagan baxtsizlik hodisalarida

Ko'pchilik bilan bo'lgan yoki o'lim bilan tugagan baxtsizlik hodisalari to'g'risida xo'jalik rahbari bir kecha-kunduz davomida quyidagilarga habar qilishi kerak:

Mehnat texnik nazoratchisiga;

Yuqori tashkilot rahbariga;

Baxtsizlik ro'y bergan joyga qaraydigan prokuraturaga va mahalliy davlat nazorat organlariga.

O'limga olib kelgan baxtsizlik hodisalari to'g'risida xo'jalik rahbari quyidagilarga ham xabar qilishi kerak:

Vazirlikka, Tarmoq rahbarlariga, Markaziy va jumxuriyat kasaba uyushma qumitalariga, Kasaba uyushma viloyat kengashiga, Ma'lumot maxsus sxema bo'yicha telefon yoki faks orqali yuboriladi.

Ikki va undan ortiq o'lim bilan tugagan baxtsizlik hodisalari to'g'risida kasaba uyushma markaziy qo'mitasi va kasaba uyushma kengashiga habar beradi.

Maxsus tekshirish dalolatnomasi tuzilgandan keyin tekshiruv xay'atining hulosasiga to'liq qo'shilgan holda bir kecha-kunduz davomida ko'pchilik bilan ro'y bergan baxtsizlik hodisalari bo'yicha N-1 formadagi dalolatnoma ham tuziladi. Mehnat texnik nazoratchisi, agar zarur topsa, maxsus tekshirishda qatnashmaganligi va tashqari holatlar to'g'risida o'z xulosalarini beradi.

O'ta og'ir oqibatlariga olib kelgan (kamida besh va undan ortiq kishi o'lgan) baxtsizlik hodisalarini, agar bu to'g'rida vazirlar kengashining maxsus qarori bo'lmasa, vazirlik tarmoq rahbari yoki ittifoqdosh jumxuriyat vaziri, tegishli kasaba uyushma tashkilotining roziligi bilan, tayinlangan xay'at; davlat nazorat tashkilotining tasarrufidagi ob'ektlarda esa-tegishli nazorat qiluvchi tashkilotlari, ministrlik tarmoq rahbarining birgalikdagi buyrug'iga binoan tuzilgan xay'at tekshiradi.

Tibbiyot, sotsial ta'minot, kasaba uyushma tashkilotlari xo'jalik rahbariyati hamkorligida jabrlanganlar yoki ularni oila a'zolari bilan uchrashib baxtsizlikka uchraganlarni xaq-xuquqlarini tushuntiradilar, agar zarar yetgan bo'lsa tegishli joylarga takliflar kiritishadi yoki o'sha yerni o'zida sotsial va tashqari yordamlar to'g'risidagi masalalarni xal qiladi.

Xo'jaliklarda ro'y berga baxtsizlik hodisalarini holatini belgilovchi ko'rsatkichlar quyidagicha ifodalanadi:

1. Jarohatlanishning tez-tez bo'lish ko'rsatkichi:

$$Pch = T/P 100 \%$$

Bu yerda: T-hisobot davrida 1000 kishi hisobiga to'g'ri kelgan, kamida bir va undan ko'p kun ish kobilyatini yo'qotganlar bilan o'lganlar soni.

P-hisobot davrida korxonada ishlovchilarning o'rtacha soni.

2. Jarohatlanishning OG'irlik ko'rsatkichi:

$$Pt = D/T 100 \%$$

Bu yerda D-hisobot davridagi umumiy mehnatga yaroqsizlik kunlari soni.

Ish vaqtini yo'qolishi ko'rsatkichi:

$$P = DR/1000$$

Hisoblangan jarohatlanish ko'rsatkichlari maxsus hisobot hujjatlari kiritiladi.

I-Formadagi dalolatnomaga asosan xo'jalik ma'muriti 7-TVN hisobot formasini o'rganadilar va baxtsizlik ko'rsatkichlarini aniqlaydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. A.Yuldashev, S.Sofiyev, S.Isamov Xayot faoliyati xavfsizligi fanidan amaliy mashg'ulotlarni bajarish bo'yicha o'quv qo'llanma. Andijon 2021 yil
2. A.Yuldashev, S.Isamov, S.Sofiyev Favqulodda vaziyatlar bo'yicha o'quv qo'llanma. Andijon 2020 yil
3. Khudoyberdiev, T. S., Boltaboev, B. R., & Kholdarov, M. S. Improved Design of Universal-combined Cultivator-fertilizer. International Journal on Orange Technologies, 2(10), 83-85. <https://www.neliti.com/publications/333419/improved-design-of-universal-combined-cultivator-fertilizer>
4. T.S.Khudoyberdiev B.N.Tursunov A.M.Abdumannopov M.Sh.Kholdarov. "Improving Soil Softening Work Bodies Structures". //Eflatounia// ISSN: 1110-8703 Pages: 131 – 135 Volume: 5 Issue 3. 2021. <https://eflatounia.com/index.php/journal/article/view/576>
5. Khudoyberdiev T. S. Tursunov B. N. Kholdarov.M.Sh. "Reserves for reducing fuel and energy costs for cultivation of cotton in the conditions of the republic of Uzbekistan". //Innovative Technologica. Methodical research journal// ISSN: 2776-0987 Volume 2, Issue 5, May, 2021 <https://it.academiascience.org/index.php/it/article/view/59>
6. TS Xudoyberdiev, BR Boltaboev, BA Razzakov, MS Kholdarov. "to the fertilizer knife determination of resistance". // Asian Journal of Multidimensional Research.// Vol 9, Issue 8, August, 2020. Pages: 65...71. <https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:ajmr&volume=9&issue=8&article=011>